

XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20583450>

Karimova Maxbuba Mukimjonovna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Pedagogika"
kafedrasi o'qituvchisi, A.Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishda kvalimetrik yondashuvning o'рни va ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ta'lim sifatini baholashda qo'llaniladigan asosiy kvalimetrik parametrlari - pedagogik jarayon samaradorligi, o'quvchilar kompetensiyalari darajasi, o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ta'lim muassasasining boshqaruv salohiyati, o'quv-metodik ta'minot sifati va moddiy-texnik baza holati kabi ko'rsatkichlar yoritiladi. Shuningdek, sifatni baholash mezonlari va ularning indekslash, reytinglash hamda monitoring tizimlarida qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini boshqarishda obyektiv, o'lchovli ko'rsatkichlar asosida qaror qabul qilishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

ta'lim sifati, kvalimetriya, boshqaruv, baholash mezonlari, sifat indikatori, monitoring, reyting, pedagogik jarayon, o'qituvchi kompetensiyasi, o'quvchi kompetensiyasi, ta'lim menejmenti.

Annotation

this article analyzes the role and importance of a qualimetric approach in the management of the quality of education in general secondary educational institutions on a scientific basis. The main qualimetric parameters used in assessing the quality of education - such indicators as the effectiveness of the pedagogical process, the level of competencies of students, the professionalism of teachers, the management potential of an educational institution, the quality of educational and methodological support and the state of the material and technical base are highlighted. The quality assessment criteria and their potential for application in indexing, rating and monitoring systems are also considered. The results of the study serve to improve decision-making based on objective, measurable indicators in the management of the quality of Education.

Keywords

Education quality, qualimetry, management, evaluation criteria, quality indicator, monitoring, rating, pedagogical process, teacher competence, student competence, education management.

Аннотация

В данной статье научно проанализирована роль и значение квалификационного подхода в управлении качеством образования в средних общеобразовательных учреждениях. Освещаются основные квалификационные параметры, используемые при оценке качества образования - такие показатели, как эффективность педагогического процесса, уровень компетенций учащихся, профессионализм педагогов, управленческий потенциал образовательного учреждения, качество учебно-методического обеспечения и состояние материально-технической базы. Также будут рассмотрены критерии оценки качества и возможности их применения в системах индексации, ранжирования и мониторинга. Результаты исследования служат для улучшения принятия решений на основе объективных измеримых показателей в управлении качеством образования.

Ключевые слова

Качество образования, квалиметрия, менеджмент, критерии оценки, показатель качества, мониторинг, рейтинг, педагогический процесс, компетенция учителя, компетенция учащегося, управление образованием.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi samarali nazorat va ilmiy asoslangan boshqaruvni talab etmoqda. Ta'limda boshqaruv va nazoratning uyg'unligini ta'minlash sifat va samaradorlikni garovi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ta'lim sifati tizimli nazorat qilinmasa, o'quv jarayonida bir qancha muayyan muammolar yuzaga keladi. Shu sababi ta'limni boshqarish, o'quv jarayonini, ta'lim turini uning imkoniyatlarini hisobga olish va shu bilan sifat menejmentining samarali ishlashini ta'minlash kerak.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini

takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (2019-yil) qabul qilindi [5].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni (23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son) [Ошибка! Источник ссылки не найден.], 2024-yil 01 fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida Qonuni" [Ошибка! Источник ссылки не найден.], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26 maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son farmoni [3], 2022-yil 11 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-son qarori [4], 2021-yil 15 oktyabrdagi Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablarga malakali o'qituvchi-pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ 646-son qarori qabul qilindi. Ushbu islohotlar O'zbekiston ta'lim tizimini global talablar bilan moslashtirish, ta'lim sifatini oshirish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tadqiqot mavzusiga oid pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil etish mavzusiga doir asosiy tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglab olish, tadqiqot yo'nalishini aniq belgilab olish imkonini beradi. Ana shu sababli tadqiqotda "sifat", "ta'lim sifati", "ta'lim sifatini boshqarish", "o'qituvchilar sifati", "kvalimetriya", "kvalimetrik parametrlar", "kvalitologiya", "indikator", "ta'lim sifatini boshqarish mexanizmi", ta'lim sifatini boshqarish modeli" kabi tushunchalar mazmunini batafsil yoritib berishni afzal ko'rdik.

Sifat - olingan natijaning maqsadga nisbati (yoki teskarisi), samaradorlik olingan natijaning xarajatlarga nisbati bilan baholanadi.

Kvalimetriya (lot."quailis"- sifat, "metriya"- o'lchov)-bu sifatni miqdoriy ifodalash va baholash qonuniyatlarini o'rganuvchi ilmiy soha hisoblanadi. U texnikadan tortib, ijtimoiy tizimlar jumladan ta'lim sifati tahliliga qadar qo'llaniladi.

Pedagogik kvalimetriya - ta'lim sohasida o'quvchi hamda talabaning egallagan bilimlari va ta'lim sifatining natijasi.

Parametr - (yunoncha: parametron - o'lchaydigan) matematik formula va ifodalarda qo'llaniladigan kattalik degan ma'noni anglatadi. Parametr qiymatlari orqali biror to'plam elementlari bir-biridan farqlanadi hamda biror voqea-hodisani tavsiflash va baholash uchun zarur bo'lgan belgi, mezon.

Kvalimetrik parametrlar - bu ta'lim sifatini miqdoriy baholash imkonini beruvchi aniq mezon va ko'rsatkichlar to'plami bo'lib, ular orqali jarayon yoki natijaning darajasi aniqlanadi. Masalan: o'quvchilarning o'zlashtirish foizi, test ballari, dars sifatiga baho berish.

Indikator - bu ta'lim sifatining holatini ifodalovchi raqamli yoki sifatli ko'rsatkichlar bo'lib, ular yordamida muayyan parametrlar bo'yicha tahlil, monitoring va taqqoslash amalga oshiriladi. Indikatorlar: bu o'qituvchilarning toifasi, darsliklarning zamonaviyligi, bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga kirirshi, ishga joylashish darajasi va hakazo.

Mexanizm (yunoncha: mechane -qurol, inshoot) - bir yoki bir necha jismning harakatini boshqa jismlarning ma'lum harakatiga aylantirib beradigan qurilma.

Ta'lim sifatini boshqarish mexanizmi - bu ta'lim sifatini boshqarish jarayonini tashkil etuvchi vositalar, vositachilar, usullar va tashkiliy-huquqiy choralar tizimidir. Bunga baholash tizimi, monitoring, rag'batlantirish, tahlil, qayta aloqa kabilar kiradi.

Model - bu bir ob'yekt, shaxs yoki tizimning ma'lumotlar bilan ta'riflangan tasviridir.

Ta'lim sifatini boshqarish modeli - bu real ta'lim boshqaruv tizimini soddalashtirilgan, strukturaviy va mantiqiy shaklda aks ettiruvchi konseptual sxema yoki tizim hisoblanadi. Modelda quyidagilar: maqsadlar, mezonlar, indikatorlar, monitoring, tahlil va qaror qabul qilish ifodalanadi.

Shunday ekan, sifat va ta'lim sifati degan tushunchalarning ta'riflariga to'xtalib o'tamiz. Sifat - umumiy tushuncha sifatida insonlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmatlar va shu kabilarning xususiyatlari hamda xususiy belgilarining majmui bo'lib, ularga qo'yilgan talablar va o'z vazifalariga to'liq mos kelishi bilan baholanadi. Bunday moslik asosan standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste'molchilarning talablari majmui bilan bilan aniqlanadi.

Yurtimiz olimlari Qurbonov Sh. va Seytxalilov E.larning ta'riflariga ko'ra, sifat murakkab xususiyat, obyekt xususiyatlari ko'rsatkichidir. Har bir ob'yekt o'zining ma'lum ehtiyojlarni qondiruvchi xususiyatlari majmui bilan tavsiflanadi [14].

Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv tarbiyaviy faoliyatini turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish shakli va uslublari, material-texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi.

Ta'lim sifati-inson hayot faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo'ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.

Ta'lim sifati – bu belgilangan maqsadlarga muvofiq tarzda ta'lim jarayoni va uning natijalari o'quvchilar, jamiyat, ish beruvchilar va davlat ehtiyojlarini qondirish darajasi. U o'quv dasturlarining mazmuni, o'qituvchilarning malakasi, infratuzilma, hamda o'quvchilarning erishgan yutuqlari orqali baholanadi.

Quyida ta'lim sifatiga oid turli mualliflar, xalqaro tashkilotlar va milliy manbalar tomonidan ilgari surilgan ilmiy ta'riflar to'plami berilgan. Bu ta'riflar mavzuni ko'p qirrali yondashuvlar asosida yoritishda yordam beradi. (1.1.1-jadval).

“Ta'lim sifati” tushunchasining evolyutsiyasi 1.1.1-jadval

No	Yondashuvlar	Ta'lim sifati mohiyatini shakllantirish
1	Slastenin V.	Ta'lim sifati - bu ta'lim mazmunining, metodlarining va alarining jamiyat ehtiyojlariga,shaxsning rivojlanishiga ofiqligi.
2	Tursunxo'jayev Sh.X.	Ta'lim sifati-bu o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, ning olgan bilimlarini amalda qo'llashga tayyorgarlik holati belgilanadi.
3	Podlasiy I.V.	Ta'lim sifati- bu o'qituvchining mahorati, o'quv urining zamonaviyligi va o'quvchining rivojlanish mikasi asosida aniqlanadigan ko'rsatkichdir.

Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, biz ta'lim sifatiga o'zimizning mualliflik ta'rifimizni keltirdik: **“Ta'lim sifati** - bu ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi resurslar (pedagog, dastur, texnologiya) o'quv muhitining samaradorligi va o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga erishish darajasini ifodalovchi, davlat standartlari va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq natijalar majmui sifatida qaraluvchi kompleks pedagogik kategoriya hisoblanadi. Biz umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishni bir qator jarayonlardan iborat bo'lgan jarayon tizimi sifatida taqdim etamiz.

Xolbo'tayev Sh.R. kvalimetrik parametrlar bu ta'lim sifatini o'lchashda qo'llaniladigan sonli va sifatli ko'rsatkichlardir. Ular asosida dars sifatini, o'quvchining rivojlanish darajasini baholash mumkin deb izohlaydi [12].

Axmedov B.X. kvalimetrik parametrlar ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini aniqlovchi mezonlar bo'lib, ular orqali ta'lim islohotlarining real natijasi aniqlanadi deb ta'rif beradi [7].

Bespalko V.P. “kvalimetrik parametr o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlarini raqamli mezonlar orqali ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, uni aniqlash baholash va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi” deb izohlaydi [10].

Zimnyaya I.A. “kvalimetrik parametrlar ta’lim tizimidagi sifatni o’lchovli tarzda tahlil qilish, taqqoslash va boshqarish uchun xizmat qiluvchi indikatorlar to’plamidir” deb ta’kidlaydi [13].

Biz yuqoridagi tushunchalarning tahlili asosida **“Kvalimetrik parametrlar”** tushunchalariga mualliflik ta’rifini shakllantirdik:

Kvalimetrik parametrlar – bu ta’lim sifati komponentlarini miqdoriy baholash imkonini beruvchi, standart va individual mezonlarga asoslangan o’quv jarayonining holati va natijalarini raqamli ko’rsatkichlarga asoslangan, boshqaruv, nazorat va rejalashtirish tizimlarining samaradorligini ifodalovchi indikatorlar tizimidir.

Mazkur maqolada ta’lim sifatini boshqarishda kvalimetrik yondashuvning nazariy asoslari chuqur va tizimli ravishda tahlil qilingan. Unda ta’lim sifatini baholash faqat subyektiv fikrlar asosida emas, balki aniq, o’lchovli va ilmiy asoslangan parametrlar orqali amalga oshirilishi zarurligi asoslab berilgan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Maqola quyidagi muhim xulosalarni ilgari suradi:

Ta’lim sifati – bu ko’p omilli va kompleks kategoriya bo’lib, u pedagogik jarayon samaradorligi, o’quvchilar kompetensiyasi, o’qituvchi mahorati, boshqaruv sifati hamda moddiy-texnik sharoitlar bilan uzviy bog’liq.

Kvalimetrik parametrlar ta’lim sifatini obyektiv baholashda muhim vosita bo’lib, ular orqali jarayon va natijalarni raqamli ko’rsatkichlar asosida tahlil qilish, taqqoslash va monitoring qilish imkoniyati yaratiladi.

Ta’lim sifatini boshqarish mexanizmi samarali ishlashi uchun indikatorlar, mezonlar, reyting va monitoring tizimlari o’zaro uyg’un holda qo’llanilishi lozim.

Kvalimetrik yondashuv asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlari aniq dalillarga tayanadi, bu esa ta’lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ham aynan sifatni oshirish va xalqaro standartlarga moslashishga qaratilgan bo’lib, kvalimetrik baholash bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, maqola ta’lim sifatini boshqarishda zamonaviy, ilmiy va innovatsion yondashuv sifatida kvalimetriyaning ahamiyatini asoslab beradi. Kvalimetrik parametrlar asosida yaratilgan baholash tizimi ta’lim jarayonini yanada shaffof, samarali va natijador qilishga xizmat qiladi. Bu esa o’z navbatida, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi O'RQ-637-son 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" Qonuni Qonun hujjatlar to'plami.
2. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. – 2024-yil 1-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – 2023-yil 26-may. – PF-79-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. – 2022-yil 11-may. – PQ-241-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (2019-yil) [5].
6. Axmedov B.X. Ta'lim sifatini boshqarishning innovatsion yondashuvlari. – Toshkent: Fan, 2018. – 196 b.
7. Axmedov B.X. Kvalimetrik baholash texnologiyalari umumta'lim maktablarida // Pedagogika jurnali. – 2020. – №3. – B. 45-51.
8. Axmedov B.X., Jo'rayev A. Ta'lim sifatini baholashning zamonaviy metodlari. – Toshkent: Universitet, 2021. – 180 b.
9. Axmedov B.X. O'qituvchi faoliyati samaradorligini baholash modeli. – Toshkent: Fan, 2021. – 148 b.
10. Беспалько В.П. Качество образования и педагогическая квалиметрия. – М.: Педагогика, 1995. – 196 с.
11. Boboyev M., Xaydarov A. Ta'lim sifatini boshqarishning innovatsion yo'nalishlari. - Toshkent: Turon-Iqbol, 2022. - 176 b.
12. Xolbo'tayev Sh.R. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish // Ta'lim boshqaruvi jurnali. - 2021. - №3. - B. 28 -35.
13. Зимняя И.А. Параметры и критерии оценки образовательных результатов // Стандарты и мониторинг в образовании. - 2007. - №2. - С. 15 - 22.
14. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. - Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. - 228 b.